

X.A. BURIYEVA,
A.YO. NAZAROV,
B.B. ABBASOV

ARXIV ISHI
NAZARIYASI VA
AMALIYOTI

TOSHKENT



UO'k 725.8
RB k 78.3
B 84

04
A.7845

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

X.A.BURIYEVA, A.YO.NAZAROV, B.B.ABBASOV

**ARXIV ISHI NAZARIYASI VA
AMALIYOTI**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

640

TOSHKENT - 2020

O'zbekiston Davlat sah'at
va madaniyat instituti
APM inv № 4255/98

UO'K: 725.8.9302
KBK: 79.3
B 84

B 84 X.A. Buriyeva, A.Yo. Nazarov, V.V. Abbasov.
Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. –
T.: «Иновацион ривожланиш нашриёт-матбаа
уйи», 2020. 284 bet.

ISBN 978-9943-6726-8-0

Mazkur o'quv qo'llanmada arxivshunoslik sohasini o'rganishda muhim o'rinni tutgan "Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti" faniga oid ma'lumotlar keltirilgan. Arxivshunoslik nazariy masalalari qatorida arxiv ishi va arxivlarni tashkil qilish, ulardagi hujjatlarni saqlash, respublika hamda xorijiy mamlakatlarda arxivlar faoliyatini tashkillashtirish, arxiv sohasini boshqarish, arxiv ma'lumotlaridan foydalanish xususida so'z yuritilgan. O'quv qo'llanmada, shuningdek, arxivshunoslik sohasiga oid nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

UO'K: 725.8.9302
KBK: 79.3

Tag'rizchi: Z.A.Saidboyojev – t.f.n., dots.

ISBN 978-9943-6726-8-0

© «Иновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.

SO'Z BOSHI

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxivshunoslik bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida qator ishlar amalga oshirilmogda. Bebaho ma'naviy meros hisoblangan arxiv hujjatlarini o'rganish hamda kelajak avlodga yetkazish borasidagi say'-harakatlar to'g'risida talaba yoshlarga zaruriy ta'lim va tarbiyani berish arxivshunoslik fanlarining amaliy ahamiyati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng barcha sohalarida bo'lgani kabi, arxiv ishi borasida ham bir qator yangi islohotlar amalga oshirildi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-apreldagi "Arxivlar to'g'risida"gi, 2010-yil 15 iyundagi "Arxiv ishi to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining arxiv ishini takomillashtirish borasidagi qarorlarining qabul qilinishi va ularning ijrosini ta'minlash mamlakatimizda arxiv ishini rivojlantirishiga asos bo'ldi. Ularda o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixiga oid qimmatli tarixiy manbalarni jamlash, saqlash, ulardan foydalanish va kelajak avlodga yetkazish chora-tadbirlari to'g'risida qonun-qoidalar keltirib o'tilgan. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida respublikamizda arxiv ishini boshqarish, ularda ish yuritish asoslarini shakllantirish va arxiv manbalarini saqlash va ulardan foydalanishni o'rgatish arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti fanining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Fanni o'qitishdan maqsad O'zbekistonda arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti, arxivlar faoliyatini tashkil etish asoslari, arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, ulardan foydalanish borasida bo'lajak arxivshunos mutaxassis talabalarga ta'lim berishdan iborat. Ushbu sohada qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni chuqur tahlil qila oladigan va ularni amalda qo'llay biladigan malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash hamda ularda arxivshunos va tadqiqotchi etikasini shakllantirishdan iborat. Arxivshunos mutaxassislarni tayyorlash borasida nazariy bilimlar berishda maxsus o'quv adabiyotlarning muhim o'rni mavjud va ta'lim jarayonida bu jihatni hisobga olish darkor. Hozirgi davrda O'zbekistonda arxivshunoslik sohasi mutaxassislarini tayyorlovchi bir qancha o'quv dargohlari faoliyat yuritib, ularni zarur maxsus fan adabiyotlari bilan ta'minlash dolzarb sanaladi. Shu nuqtayi nazardan "Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti" nomli mazkur o'quv qo'llanma arxivshunoslik faniga oid

boshlang'ich, tayanch bilimlarni, shuningdek, xorijiy adabiyotlardan jalb qilingan ma'lumotlarni o'z ochiga olgan.

"Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti" o'quv adabiyotida taqdim etilgan ma'lumotlar quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

- arxiv sohasida davlat siyosatining mohiyati, mazmuni, tamoyillari va xususiyatlarini o'rganish;

- arxivlar faoliyati, arxiv ishinin mohiyati va turlarini ijtimoiy va kasbiy asosda o'rganish;

- arxivshunoslik sohasining nazariy jihatlarini va qonuniyatlarini o'rganish va ularning amaliyot jarayoniga ta'sirini tahlil qilish;

- arxivlarda ish yuritishning samarali uslublarini o'zlashtirish, tahlil qilish;

- arxiv amaliyotida nazariy bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish hamda ta'lim va tarbiyaning uslublarini o'rganish;

- arxivlarning ilmiy-ma'lumotnoma apparatini bilan tanishtirish va ularning turlarini o'rganish;

- talabalarining kelgusi ish faoliyatlarida arxiv sohasida ishbiarmonlik muloqoti to'g'risida tushunchalarga ega qilish va ularda zarur ko'nikmalarni hosil qilish;

- bo'lajak arxivshunos olimlar hamda arxivchi mutaxassislarini bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiga bo'lgan qiziqishlarini yanada chuqurlashtirish, barkamol shaxs qilib tarbiyalash.

O'quv qo'llanmada fanga oid mavzular o'quv dasturiga mos holda joylashtirilgan va muayyan reja asosida yoritilgan, mavzuga doir kalit so'zlar hamda savol va topshiriqlar keltirilgan. Ayni vaqtda o'quv qo'llanmada fan bo'yicha jamlangan nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida va mavzularni atroflicha o'zlashtirish uchun amaliy topshiriqlar berilgan bo'lib, ular mavzular bo'yicha testlar, glossariy, assisment topshiriqlaridan iborat.

"Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti" fani bo'yicha tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma arxivshunos-talabalarni o'qitishda asosiy adabiyotlar qatoriga kiritilishi nazarda tutilishi bilan birga, arxivshunoslik sohasiga oid qator fanlarni o'zlashtirishda ham maxsus o'quv adabiyoti sifatida qo'llanilishi mumkin.

1-MAVZU

KIRISH. FANNING MAQSADI. ARXIVLARNING IJTIMOY AHAMIYATI. ARXIVLARNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI. KURS BO'YICHA ASOSIY TUSHUNCHALAR

Reja:

1. Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti arxiv ishini o'rganuvchi fan sifatida.

2. Mustaqil O'zbekistondagi arxivlar. Arxivlarning turlari. Kurs bo'yicha asosiy atamalar. Milliy Arxiv fondi.

3. Arxivlarning ahamiyati.

4. Arxiv ishini boshqarishni tashkil etishda xalqaro tajribalar.

Kalit so'zlar: arxiv ishi, amaliyot, nazariya, AINA, arxiv fani, arxivshunoslikka oid atamalar, arxiv turlari, Milliy Arxiv fondi, arxivlarni tashkillashtirish.

1. Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti arxiv ishini o'rganuvchi fan sifatida

O'zbekiston Respublikasi suveren, huquqiy demokratik davlat sifatida jadal rivojlanishi va xalqaro jahon hamjamiyatiga faol integratsiyasini ta'minlash uchun siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohalarida mustahkam qonunchilik poydevorini yaratib kelmoqda. Bunga asoslanib barcha tarmoqlar taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan islohotlar amalga oshirilmogda. Shu jumladan, xalqimizning tarixiy xotirasini mustahkam saqlab avlodlarga uzatib kelayotgan arxiv muassasalari faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratilmogda. Zero, arxivlar insoniyat tarixini moddiy ashyolarda saqlovchi vosita bo'lib, o'zida yozma, ilmiy-texnik, audio-vizual, elektron ma'lumotlarni saqlanishi bilan qimmatbaho tarixiy marba hisoblanadi. Arxivlarda bugungi kunda xalq xo'jaligi, fan tarixi, madaniyat, hamda insonlar haqida muhim ma'lumotlar mavjud. O'zbekiston hukumati tomonidan arxiv ishiga doir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ular arxivshunoslik sohasi uchun huquqiy poydevor sanaladi. Jumladan: 2010-yil 15-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining

“Arxiv ishi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi(O‘z R VM) tomonidan qabul qilingan qator qarorlar – “Arxiv ishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” O‘z R VM 1999 yil 30 oktyabrda 482-son qarori, “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida” O‘z R VM 1999 yil 20 martdagi 140-son qarori, “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi boshqaruvini takomillashtirish to‘g‘risida” O‘z R VM 2004 yil 3 fevraldagi 49-son qarori, “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘z R VM O‘z R 2008 yil 26 avgustdagi 194-son qarori, “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida” O‘z R VM 2012 yil 5 apreldagi 101-son qarori va b.

Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti arxivshunoslik sohasiga oid asosiy ilmiy fanlardan biri hisoblanadi.

Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti fanining *maqsadi* – bo‘lajak arxivshunoslarni arxiv va arxivlarning turlari haqida tasavvurga ega bo‘lish, arxivlar faoliyatini tashkil qilish, arxiv hujjatlarni yig‘ish asoslarini, arxiv materiallarini saqlash va ulardan foydalanishni o‘rgatishdan iborat.

Shuningdek faning *vazifalariga* talabalarga arxiv ishi sohasida nazariy bilimlarni berish, talabalarga huquqiy normativ hujjatlarni to‘g‘ri tahlil qilishni va ulardan arxiv ishi amaliyotida samarali foydalanish, arxiv hujjatlari va arxivda ish yuritish, arxiv etikasi qoidalarini o‘rgatish kiradi.

Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti fani doirasida arxivni jamiyat hayotidagi o‘rni, Respublikamizdagi arxiv ishini boshqarish tizimi, arxivlarni turlari, arxiv fondlarini butlash, turlarga bo‘lish va tizimlashtirish, arxiv ilmiy-ma‘lumotnoma apparatlarini ilmiy so‘rov-nomalarini tashkil qilish, arxiv materiallaridan foydalanish qoidalari, arxiv muassasalarida ish yuritish kabi bilimlar o‘rganiladi.

Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti fanining o‘zlashtirish jarayonida talabalar quyidagilarni bilishi lozim:

- mamlakatimizda arxiv ishini boshqarish to‘g‘risidagi bilimlarni, arxivshunoslikni ilmiy faoliyatini, arxiv ishi nazariyasi va amaliyotini mazmunini egallashi;

- arxiv hujjatlari va fondlarini o‘ziga xos tomonlarini, hujjatlarni ekspertiza qilishni, arxiv materiallarini hisobga olish va saqlashni, ilmiy-ma‘lumotnoma apparatini tuzishning o‘ziga xos tomonlarini, arxiv hujjatlarni nashrga tayyorlashni, arxeografiya va arxiv evristikasini o‘rganishi;

- arxivshunoslikka oid atamalarining mazmun-mohiyatini, fondlash asoslari nazariyasini, qoidalarini, huquqiy-me‘yoriy hujjatlar mazmunini, arxiv fanlariga oid adabiyotlar bilan ishlashni, hujjatlarni ekspertizasini tashkil qilish to‘g‘risidagi ko‘nikmalarni bilishi;

- bo‘lg‘usi mutaxassis sifatida fanning obyektini farqlay olishni, fanning funksiyalarini, uning yordamchi tarixiy fanlar bilan o‘zaro aloqasini aniqlay olishni, arxivda ish yuritishni rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, arxiv ishi sohasidagi bilimlarni egallashi.

Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti fanining o‘rganish obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- qog‘ozga tushirilgan matnli hujjatlar;

- ilmiy-texnika, kino, foto, fotohujjatlar;

- elektron vositalariga yozilgan, raqamli hujjatlar;

- turli ma‘lumot tashuvchilarda saqlanayotgan mikrofilmlar va boshqa hujjatlar.

Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti sifatida hujjatlar bilan ishlashning quyidagi tamoyillari (printsplari) va usullarini quyidagilarda saqlanishi lozim bo‘lgan hujjatlarni saralash usullari va printsplari;

- 1) arxivda saqlanishi lozim bo‘lgan hujjatlarni saralash usullari va printsplari;
- 2) hujjatlarni to‘liq saqlanishini ta‘minlovchi shart-sharoitlari;
- 3) hujjatlarni mazmuni haqidagi axborot tizimini yaratish;
- 4) hujjatlardagi ma‘lumotlardan foydalanishni tashkil qilish;
- 5) arxiv hujjatlarni qayd qilish, hisobga olishni tashkil qilish;
- 6) arxiv muassasalari faoliyatini tashkil qilish.

Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti fani bir nechta arxivshunoslikka oid tarmoq fanlar bilan bog‘liq, xususan:

- arxivshunoslik nazariyasi va uslubiyati;